

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10862870>

TIBBIY TA'LIMDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Inatullayeva Barchinoy Abdurahmonovna

Guliston Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat

Sog'ligini saqlash texnikumi o'qituvchisi

e-mail: barchinoyinatullayeva@g-mail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolaning eng muhim jihati shundaki, hozirgi kunda olib borilayotgan muhim va dolzarb bo'lgan ta'limdagi o'qitish metodikasini rivojlantirish va yana invatsiya cho'qqisiga olib chiqish, pedagogik mahoratini oshirishdagi eng muhim metodlar va inter faol usullarning dolzarb qismlarini o'rganishga qaratilgan tahlillar yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar: interfaol usullar, chaqiriq bosqichi, aqliy hujum, anglashbosqichi, fikrlash bosqichi, "Kichik guruhlarda ishlash" usuli, "Davra suhbat" usuli, "Bahs-munozara" usuli, treninglar

USE OF INTERACTIVE METHODS IN MEDICAL EDUCATION

Inatullayeva Barchinoy Abdurahmonovna

College of Gulistan Abu Ali Ibn Sina

teacher of health care technical school

e-mail: barchinoyinatullayeva@g-mail.com

ABSTRACT

In this article, based on the experiences in teaching medical sciences, we discussed the scientific-theoretical and practical-methodical foundations of pedagogical technology, as well as interactive methods. The theoretical-methodological foundations of pedagogical technology, its content, function, elements, their tasks, ways to achieve efficiency in the use of interactive methods in the course of the lesson were highlighted.

Key words: *interactive methods, challenge stage, brainstorming, understanding stage, thinking stage, "Working in small groups" method, "Round discussion" method, "Discussion" method, trainings*

KIRISH

Darsning ko'p qismini zerikarli ma'ruzalar egallab olgan va bu hozirgi zamondavaqtni o'g'irlashdan boshqa ish emas, ammo dras olib borishda interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish ortib borayotganligini inobatga oladigan bo'lsak bu bo'yicha ko'pgina faoliyatlar kundan-kungakuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Tibbiyot ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim texnologiyasi – bu yuqoridagi omillarni tadbqiq qilish hamda rivojlanayotgan dars jarayonini, kompyuter texnologiyalar vositasida o'qitish vazifasini faol o'rganish, jarayonini rag'batlantirish, tafakkur etish usulini tarbiyalashdan iboratdir.

Hozirgi kunda bu yo'nalishlar bo'yicha bir qator tarqqiy topgan chet davlatlarda talabalarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini va sifatini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni

qo'llash borasida katta tajriba, metodik usullar to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol usullar nomi bilan yuritilmoqda.

Inovatsion ta'limni tashkil etish va uni olib borish, ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishga qo'yiladigan muhim muommalardan yoki muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir. Interfaol usullarni o'quv jarayonida mustahkamlash, demokratlashtirish, hamkorlik ham ijodkorlikni tashkil etishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Darslarni olib borishdava oquv jarayonlarida interfaol usullardan foydalanish o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni har bir o'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan va bilim darajasidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

Interfaol usullar birdaniga ko'pgina vazifalarni bajara olishga imkon beradi. Eng muhimi, interfaol usullar talabalarning kommunikativ bilimi, tushunchasini, ko'nikma va malakalarini oshiradi. Ularni hamkorlik, hamjixatlik, do'stona munosabatlarda ishlashinita'minlaydi. Bu borada muhim sanalgan usul bu- bir-birlarini eshitish, fikrini bayon etish va o'zaro hurmatga undaydi. {1-123-126 page }

Interfaol usul texnologiyasining mohiyati talabalarning ijodkorligiga tayanish va darsda erkin baxs-munozara sharoitini tug'dirishdan iborat. Bu usulga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi.

Chaqiriq bosqichi. Ushbu bosqichda talabalarning faolligini oshirish, o'tilayotgan mavzuning mazmun- mohiyatiga va uning asosiy qismiga kirib borish, uni anglab yetish jarayonini tanishtirish , tayyorlash maqsadi ko'zda tutiladi.

Aqliy hujum. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanilishi mumkin. Ushbu bosqichda qo'yilgan muammo talabalarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari muommonning yechimini izlashlari orqali ochiladi.

Anglash bosqichi. Darsdagi muhim hisoblangan mavzuga oid xulosaviy fikr-mulohazalar eshitiladi va talaba tomonidan yangi fikr-mulohazalar bilan to'ldiriladi.

Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa jummalarda qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun talabalar guruhlariga bo‘linadi. Demak ushbu har bir guruh muammo-topshiriq bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan muammo-topshiriqni boshqalarga ma‘lum qiladi. {2-89-94 page}.

NATIJALAR

Natijada ushbu guruhlar bilan ishlash faqat fikrlash yoki muammoni yechimini toppish bosqichida emas, balki birinchi, ikkinchi bosqichlardan boshlab yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

“Kichik-kichik guruhlarda ishlash” metodidan foydalanish talabalarning darsdagi faolligini yori darajadagi faoliyatini ta‘minlaydi, har bir talabanning munozarada qatnashish huquqini va bir-biridan o‘rganish imkonini va birmuncha fikr mulohaza almashish kabi jarayonlarni taqdim qiladi. Buning uchun guruhdagi talabalar kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir kichik guruhda 4-5 ta talaba bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” usuli qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta‘lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha talabalarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Bulardan tashqari guruhlariga aniq yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, topshiriqlarni bajarish uchun yetarli vaqt ajratish, kuchli guruhlarini rag‘batlantirib borish ishning natijasini baholash kabilarga ham ahamiyat berish mumkin bo‘ladi. Dars jarayonida guruh a‘zolarini almashtirib borish ham mumkin. {4-100-106 p}

Interfaol usul o‘z ichiga “Kichik guruhlar bilan ishlash”, “Baxs-munozara”, “Guruhlar aro bellashuv”, “Aqliy hujum”, “Tanqidiy fikrlash” kabi metodlarni qamrab oladi.

“Davra suhbat” usuli – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan talabalar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbat” usuli qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bular bir talabanning bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishga yordam

beradi. Davra suhbatining ogʻzaki va yozma shakllari mavjuddir. Ogʻzaki davra suhbatida taʼlim beruvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu savol boʻyicha oʻz fikr-mulohazalarini bildirishlarini soʻraydi va aylana boʻylab har bir talaba oʻz fikr-mulohazalarini ogʻzaki bayon etadilar. Soʻzlayotgan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim boʻlsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib boʻlingandan soʻng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

MUHOKAMA

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir talabaga konvert qogʻozi beriladi. Har bir talaba konvert ustiga maʼlum bir mavzu boʻyicha oʻz savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga oʻz javobini yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi. Shundan soʻng konvertni soat yoʻnalishi boʻyicha yonidagi talabaga uzatadi. Konvertni olgan taʼlim oluvchi oʻz javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi va yonidagi talabaga uzatadi. Barcha konvertlar aylana boʻylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yigʻib olinib, tahlil qilinadi.

“Bahs-munozara” usuli – biror mavzu boʻyicha talabalar bilan oʻzaro bahs, fikr almashinuv tarzida oʻtkaziladigan oʻqitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul qoʻllaniladi.

Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini talabalarning biriga topshirish yoki taʼlim beruvchining oʻzi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har birtalabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim.

Interfaol usullarda ishlash va oʻsha sharoitlarda ishlash malakalarini hosil qilish uchun treninglar tashkil etiladi. Treningda ishtirok etuvchilar maʼlum boʻlgan usullarni oʻz oʻquv faoliyatlarida foydalanish uchun malaka va koʻnikmalarni hosil qiladilar. Treninglardavomida mavjud boʻlgan yangi usullar muhokama qilinadi, oʻrganiladi, koʻnikmalar hosil qilinadi. Oʻzlari shu asosida yangicha ishlash faoliyatini oʻrganadilar.

Umuman treninglar qo‘shimcha ta‘lim olishning asosiy formalaridandir. Treningning o‘ziga xosligi shundaki, mutaxassisni o‘z faoliyatini, qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Treningni tashkil etish va o‘tkazishda shunday metodlar mavjudki ular universal xarakterga ega. Masalan, guruhiiy munozaralar, o‘yin asosidagi usullar, vaziyatlarni modullashtirish, inson sezgilarini rivojlantirish texnikalari, mediativ texnikalar va boshqalardir. {5- 284-288 стр}

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, treningda usullar quyidagicha bo‘lishi mumkin. Komanda bo‘lib ishlash, kichik guruhlariga bo‘linib ishlash, rolli o‘yinlar, mini ma‘ruzalar (15-minutgacha), ular trening a‘zolariga o‘quv-metodik qo‘llanma materiallar tarqatish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda. O‘quv tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Barkamol avlodni tarbiyalash, ularda o‘z mavqeini anglash va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishida imkoniyat yaratib berish o‘qituvchining birinchi galdagi vazifasi xisoblanadi. Shuning uchun ham, ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari - interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta‘limda qo‘llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli vayetuk malakali kadr bo‘lib yetishishlarini ta‘minlaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Parpieva O.R, Hojkarimova G.T, Nazirova A.M //FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT// Международном научно-практическом журнале “Экономика и социум”. Вып №6(85) 2021. 157-161стр.

2. Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi //INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 123-126 page.

3. Oripova Nodirahon Qodirjon qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //Basics of a healthy lifestyle in the educational process// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 89-94 page.

4.Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva // Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 page.

5.Roziqova Gulbahor Zaylobiddinovna, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi // CREATING AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS// IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 284-288 стр.

6.Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, A.Ruzimatova //CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.08.2022 yil. 10-SON. 83-87 бетлар

7.Парпиева О.Р. Болтабоева Н.М. //ЭТАПЫ РЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЗАДАЧИ// Международный научно-практический журнал “Теория и практика современной науки” Вып №6(48) 2019. 388-391с